Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · “Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlashning ustuvor yo‘nalishla...

ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

2. “Taraqqiyot strategiyasi” markazi ijrochi direktori Eldor
Tulyakov nutqidan. 2020.
6. Yuldasheva, G., & Shermatova, H. (2022). Ta’limda innovatsion texnologiyalarning qo ‘llanilish istiqbollari. Science and innovation, 1(B8), 5-9.
7. Yuldasheva, G. I. (2021). Axborot texnologiyalari-ta’lim sifati kafolatidir. Электронное научно-практическое периодическое издание
«Экономика и социум, (4), 83.
5. Yuldasheva, G. I. (2022). Ta'lim samaradorligini oshirishda elektron darsliklardan foydalanish. Youth, Science, Education: Topical Issues, Achievements And Innovations,(5), 36-38.
6. Yuldasheva, G., & Yo‘ldosheva, M. (2022). Factors of informatization of the process of primary education.“. Электронное научно-практическое периодическое издание «Экономика и социум, 12(91), 689-692.
7. Yuldasheva, G., & Yo‘ldosheva, M. (2022, September). Axborot xavfsizligiga tahdidlar va ularning oldini olish omillari. In International scientific conference" innovative trends in science, practice and education" (Vol. 1, No. 2, pp. 231-236).

O‘ZBEKISTONDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI QO‘LLAB-QUVVATLASHNING IJTIMOIY-IQTISODIY AHAMIYATI

Sultonova Zebiniso Sharipovna
Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti 1-bosqich magistranti
narzullotfi@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezis O‘zbekistonda ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini yoritishga bag‘ishlangan. Unda ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning dolzarbligi, mamlakat iqtisodiy o‘sishiga qo‘shadigan hissasi va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashdagi roli ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, tezisda ayollarning iqtisodiy faolligini oshirish yo‘lidagi mavjud imkoniyatlar, davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan yordam va qo‘llab-quvvatlov mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy foydalarini oshirish, shuningdek, mazkur yo‘nalishda mavjud muammolarni hal qilish bo‘yicha amaliy takliflarni ishlab chiqishda foydali bo‘lishi mumkin.

Kalit so‘zlar: Tadbirkorlik, tadbirkor, ayollar tadbirkorligi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, ayollar huquqlari,iqtisodiy barqarorlik, gender tengligi, oilaviy tadbirkorlik, ish o‘rinlari yaratish, moliyaviy savodxonlik, iqtisodiy islohotlar.

O‘zbekistonda ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash masalasi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Ayollar tadbirkorligi nafaqat oilalarning farovonligini oshiradi, balki jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga yordam beradi. Ayollarning iqtisodiy faolligini oshirish orqali nafaqat iqtisodiyotning turli sohalarida yangi ish o‘rinlari yaratiladi, balki ayollarning jamiyatdagi mavqeini kuchaytirish imkoniyati ham oshadi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda ayollarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilishni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ko‘plab tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Xususan, ayollar uchun maxsus grant dasturlari, imtiyozli kreditlar va o‘quv treninglari tashkil etilmoqda. Ushbu dasturlar ayollarga o‘z bizneslarini boshlash yoki kengaytirish imkoniyatini beradi.

Published: 23.12.2024
Cite this article: Sultonova Zebiniso Sharipovna (2024). O‘zbekistonda ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati. Emro Science and Education, 1(4). https://journal.emro.uz/public/maqola/1040
© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Bundan tashqari, davlat tomonidan ayollarning iqtisodiy huquqlari va imkoniyatlarini himoya qilishga qaratilgan qonunchilikni kuchaytirish choralari ko‘rilmoqda.

Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning ijtimoiy ahamiyati katta. Ayollar, odatda, o‘z tadbirkorlik faoliyatida jamiyatning ehtiyojlariga mos bo‘lgan mahsulot va xizmatlarni taklif qilishga intiladilar. Bu esa ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanishiga va aholining turmush darajasini yaxshilashga xizmat qiladi. Shuningdek, ayollar tadbirkorligining rivojlanishi gender tengligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu jamiyatda ayollarning o‘zini erkin his qilishi va ijtimoiy faolligini oshirishga olib keladi. Bu fikrlarimizning isboti sifatida ayollar tadbirkorligining ijtimoiy ahamiyatini quyidagicha yoritishimiz mumkin (1-jadval):

1-jadval

Ayollar tadbirkorligining ijtimoiy ahamiyati[78]

Gender tengligini ta’minlash	Ayollarni iqtisodiy hayotga faol jalb qilish gender tengligini mustahkamlashga yordam beradi. Bu nafaqat ayollarning iqtisodiy mustaqilligini ta’minlaydi, balki jamiyatdagi diskriminatsiyani kamaytiradi.
Oilalarning iqtisodiy farovonligi	Ayollar tadbirkorligi oilalarning daromadini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Tadbirkor ayollar oilaviy moliyaviy yukni yengillatib, bolalar ta’limi va sog‘lig‘iga ko‘proq mablag‘ ajratishga imkon yaratadi.
Ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash	Ayollarni iqtisodiy faoliyatga jalb qilish orqali jamiyatda kambag‘allik darajasini pasaytirish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga erishish mumkin. Iqtisodiy jihatdan faol ayollar ijtimoiy hayotda ham faollik ko‘rsatadilar.

Yuqoridagi jadvalda berilganlardan tashqari, ayollarning iqtisodiy faoliyati ularning jamiyatdagi mavqeini oshirishga, shuningdek, gender tengligini mustahkamlashga sabab bo‘ladi. Bu jarayon jamiyatning madaniy va ma’naviy taraqqiyotiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatib, ayollarni mustaqil, tashabbuskor va faol shaxslar sifatida shakllanishiga imkon yaratadi. Natijada, ijtimoiy barqarorlik kuchayadi va jamiyat yanada uyg‘un rivojlanadi.

Iqtisodiy jihatdan olib qaralganda, ayollar tadbirkorligi mahalliy iqtisodiyotni mustahkamlash va milliy iqtisodiy rivojlanishga hissa qo‘shishning muhim vositasidir. Ayollar, o‘z bizneslarini tashkil qilganda, ko‘pincha mahalliy resurslardan samarali foydalanadilar, bu esa mahalliy bozorlarga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi. Shuningdek, ayollar tomonidan ochilgan korxonalar ko‘pincha ekologik jihatdan barqaror loyihalarni amalga oshiradi, bu esa iqtisodiy rivojlanishning barqarorligiga xizmat qiladi. Bunda kelib chiqib, ayollar tadbirkorligining iqtisodiy ahamiyatini quyidagicha yoritishimiz mumkin (2-jadval):

2-jadval

Ayollar tadbirkorligining iqtisodiy ahamiyati[79]

Ish o‘rinlari yaratadi	Ayollar o‘z bizneslarini tashkil qilish orqali yangi ish o‘rinlari yaratadi. Bu iqtisodiy o‘sish va bandlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.
Innovatsiyal	Ayollar tadbirkorligi yangi g‘oyalar va innovatsiyalarni

[78] Internetdagi manbalar va ilmiy adabiyotlardagi ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi

[79] Aziza Azlarova (2023) Features of the development of the banking system of the republic of uzbekistan at the present stage Aziza Azlarova 2023/10/24. Economics and Innovative Technologies. Volume 11 Number 5 Pages 1-7.

arni rivojlantiradi	amalga oshirish uchun muhim platforma hisoblanadi. Ayollarning ijodiy yondashuvlari turli sohalarda yangilik kiritishga yordam beradi.
Iqtisodiy o‘sishga ko‘maklashadi	Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish iqtisodiy faollikni oshiradi va milliy yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmini kengaytirishga hissa qo‘shadi.

Shuni aytib o‘tishimiz kerakki, hozirgi kunda, ijtimoiy sohaga yo‘naltirilgan biznes, ya’ni bolalar va yoshlarni har tomonlama rivojlantirish va ularga ta’lim berish sohasidagi loyihalarning 90 foizi aynan xotinqizlar tomonidan amalga oshirilmoqda. Iqtisodiyotda xotin-qizlar tadbirkorligi ulushini oshirish uchun ayollarga oilaviy va xususiy tadbirkorlikni tashkil etish uchun imtiyozli kreditlar ajratilmoqda. Shuningdek, ayollar tadbirkorligini moddiy va tashkiliy jihatdan qo‘llabquvvatlashda hamkorlik olib borilmoqda. Mamlakatimiz mehnatga layoqatli aholisining yarmidan ko‘pini ayollar tashkil qilishiga qaramay, ularning kichik biznes va xususiy tadbikorlikdagi ulushini aniqlash qiyin. Boisi – ayollar biznesining rivojlanishiga oid aniq ma’lumotlar mavjud emas. Xususan, bugungi kunda sodir bo‘layotgan hududiy va global integratsion jarayonlar, milliy ehtiyojlar va ustuvor maqsadlarni hisobga olgan holda, ayol tadbirkorlarning turli taraqqiyot yo‘nalishlariga qo‘shgan hissasiga baho berish, ayollar tadbirkorligini yanada rivojlantirish kerak bo‘lgan sohalarni aniqlash imkoniyatini oshirish zarur.

Shu bilan birga, ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda mavjud qiyinchiliklarni yodga olish muhimdir. Ko‘plab ayollar hali ham moliyaviy resurslarga cheklangan kirish imkoniyatiga ega yoki biznes yuritishda zarur tajribaga ega emaslar. Shu sababli, tadbirkorlik bo‘yicha ma'lumot beruvchi treninglar va maslahat xizmatlarini kengaytirish, shuningdek, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlarini oshirishni talab qiladi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash mamlakatning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash va ijtimoiy taraqqiyotini tezlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Davlat, nodavlat tashkilotlar va jamiyat birgalikda ishlagan holda, ayollar uchun qulay sharoitlar yaratishi kerak. Bu nafaqat ayollar uchun, balki butun jamiyat uchun ijobiy natijalar olib keladi. Ayollarni iqtisodiy hayotga faol jalb qilish orqali nafaqat ularning shaxsiy farovonligi, balki jamiyatning umumiy rivojlanishi ta’minlanadi. Ushbu yo‘nalishda olib borilayotgan chora-tadbirlarni yanada kuchaytirish va mavjud muammolarni hal qilish orqali mamlakatning barqaror iqtisodiy taraqqiyotiga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Alimpieva A.V. (2017) Women's entrepreneurship in the Belarusian and Russian public discourse // PRIMO ASPECTU. № 4 (32). P. 19–30. [Alimpieva A. V. Zhenskoe predprinimatel'stvo v belorusskom i rossiyskom publichnom diskurse // PRIMO ASPECTU. 2017. № 4 (32). S. 19–30] – (In Rus.)
2. Annayeva N.R. (2018) Ayollar tadbirkorligining genezisi, nazariyasi va amaliyoti (Uzbekiston misolida). Falsafa fanlari buyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Samarkand.
3. Aripov Oybek Abdullayevich (2017) Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda ayollarning o‘rni. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun.
4. Aziza Azlarova (2023) Features of the development of the banking system of the republic of uzbekistan at the present stage Aziza Azlarova 2023/10/24. Economics and Innovative Technologies. Volume 11 Number 5 Pages 1-7.

5. Farmon (2022) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida ” gi PF-87- sonli Farmoni. 07.03.2022 yil. https://lex.uz/docs/5899498

6. Jumayeva Muxlisa Abdug‘ani qizi. (2024) “Tadbirkorlikni rivojlantirishda ayollar faolligini oshirish”, 08.00.15 –“Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti” (iqtisodiyoti fanlari). falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati -13 bet.

МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТНИНГ ҲАЛҚАРО СТАНТДАРТЛАРИ АСОСИДА ФЕРМЕР ХЎЖАЛИКЛАРИДА ДАРОМАД ВА ХАРАЖАТЛАРНИ ТАН ОЛИШ ВА БАҲОЛАШ

Бердалиев Хайдаркул Каттабоевич
Тошкент амалий фанлар университети, “Молия ва бухгалтерия ҳисоби” кафедраси катта ўқитувчиси
xaydarqulberdaliev1@gmail.com
Тўраева Дилфуза Панжиевна
Тошкент амалий фанлар университети, “Молия ва бухгалтерия ҳисоби” кафедраси катта ўқитувчиси
dilfuzato‘rayeva1@gmail.com

Аннотатция: Ушбу мақола Ўзбекистон Республикасида долзарб бўлган тармоқлардан бири қишлоқ хўжалигидаги кластерларни фаолияти таҳлил қилинди. Бунга жаҳон иқтисодиётининг глобаллашуви ва халқаро молиявий ҳисобот стандартлари ролининг ортиб бораётгани ёрдам бермоқда. Ҳозирги даврга келиб давлатимиз томонидан тадбиркорлик фаолиятининг янги шароитларига ўтиш, бухгалтерия ҳисобининг асосий тамойилларини халқаро стандартларга яқинлаштириш мамлакатимизда молийавий натижаларни ҳисобга олишда биз учун янги консепсияни шакллантириш заруратини келтириб чиқарди. Шунингдек, кластерлар фаолиятини ривожлантириш бўйича таклифлар ишлаб чиқилди.

Калит сўзлар: бухгалтерия ҳисоби, қишлоқ хўжалиги, фермер хўжалиги, деҳқон хўжалиги, молиявий натижалар, бухгалтерия ҳисобининг халқаро стандартлари, миллий бухгалтерия ҳисоби.

“Ҳозирги кунда юртимизда мамлакатлар миллий иқтисодиётига юқори даромад келтирадиган истиқболли тармоқлардан бири – бу қишлоқ хўжалигидир”. Кластер–қишлоқ хўжалигида туб бурилиш ясади. Ўзбекистон аҳолисининг деярли тенг ярми қишлоқ жойларда яшайди. Шу сабаб, бевосита соҳада фаолият олиб бормасада, қишлоқ хўжалигига тааллуқли бўлган ҳарбирянгилик, ўзгариш, жорий этилаётган янги иш усуллари кўпчиликни қизиқтириши табиий.

Хўш, қишлоқ хўжалигига жорий қилинган кластер тизимининг афзалликлари нимада? Кластер ўзинима? Бу саволга қисқача тўпланиб ишни амалга оширишдир десак хато бўлмайди. Замонавий инфратузилма ва илғор технологиялар билан Кластер ва кооперация тизимини ривожлантириш қишлоқ хўжалигида ислоҳотларнинг устувор йўналишларидан биридир.

Кластерларда ҳосилдорликнинг юқори бўлиши ҳисобига ишлаб чиқарувчилар даромадларини оширишга алоҳида эътибор қаратилмоқда. 2018-2022 йилларда илмий-инновацион ютуқлар ва илғор технологиялар кластерлари жорий этилиши натижасида пахта ҳосилдорлигини 26,4 ц/га дан 30 ц/га, ғалла ҳосилдорлигини 57,8 ц/га дан 63,5 ц/га оширилди. Ишлаб чиқарувчиларнинг